

ODIL SUDLOV – YANGI O‘ZBEKISTON POYDEVORI

O‘rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya 108-guruh talabasi

Telefon: +998(97) 021-04-28

muxlisaormanova13@gmail.com

Adolat bu –davlatchilikning poydevoridir

Sh.M.Mirziyoyev

Anontatsiya: ushbu maqolada yurtimizdagi islohotlar, sud-huquq tizimidagi yangi qonunlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat, adolat, jazo, konstitutsiya, norma, prinsip, huquq va erkinliklar, modda, o‘g‘rilik, qonun.

Adolat bu - so‘z har bir insonning ko‘nglidan joy olgan kichik bir dunyo. Chunki insonlar bu so‘zning tub mazmun mohiyatini ko‘p yillardan beri ko‘rib, eshitib yoki his qilib kelishmoqda. Davlatimizda ham so‘nggi yillarda juda ko‘p islohotlar bo‘lmoqda. Hattoki so‘nggi yillarimizni islohotlar davri, desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi meningcha. Ayniqsa, bu islohotlar va o‘zgarishlar sud – huquq tizimini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Kundan – kunga shunday qaror-u farmonlar qabul qilinmoqda yoki yangi qonun loyihalar ommaga e‘lon qilinib, muhokamaga qo‘yilmoqda. Ha, bu kabi ishlar albatta har bir insonni ayniqsa, biz o‘shib kelayotgan yosh avlodni befarq qoldirmaydi. Adolatning timsoli esa yurtimizda odil sudlovni amalga oshirayotgan sud hokimiyati hisoblanadi. Chunki prezidentimiz ta’kidlaganiday, “Adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashda sud hokimiyati hal qiluvchi o‘rinni egallaydi”¹ deb bejiz aytmagan. Shunday ekan yildan – yilga aynan sud sohasida ham katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu o‘zgarishlar – u islohotlar albatta inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligi ta’minlash, qonun oldida barcha teng ekanligini ta’kidlab fuqarolarga yetkazish, fuqarolarga sud jarayonlari shaffof va adolatli o‘tayotganini ko‘rsatish uchundir. Chunki shu islohotlar sababli qanchadan – qancha inson taqdiri umuman boshqa tomonga o‘zgarib, hayotida tub o‘zgarish hosil qilmoqda.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning asl mazmuni ham fuqarolarga kafolatlangan huquq va erkinlik berishdan iboratdir. Bunda deyarli har bir moddaga yangi norma kiritilgan yoki tubdan o‘zgartirilgan. Misol qilib aytadigan bo‘lsak;

¹ www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidan 2020 yil 29 dekabr

“30-modda. Hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas”².

Yuqorida keltirib o’tgan 30-modda yangi qo’shilgan moddalar qatoriga kiradi. Bu degani bizda aynan shu moddaga qonunchiligimizda ehtiyoj bo’lgan. Bu ham bir ayb qilib, nato’g’ri yo’lga kirib qolgan insonlar uchun yengillik, yurtimizda olib borilayotgan insoniylik va odamiylik tuyg’ulariga amalda rioya qilinayotganini isbotidir. Chunki misol uchun bir inson jinoyat qildi, ya’ni o’g’irlik jinoyatini sodir etdi. Bu albattada iqtisodiy sohadagi jinoyatlar turkumiga kiradi. Jinoyat kodeksining 2023 yil 23 martdagi O’RQ-822-sonli Qonunga asosan 169-moddaning 2-qismi “d” va “e” kichik bandlar bilan to’ldirilgan³. Demak, 2023 yil 23 martgacha bu bandlar jinoyat deb, Jinoyat kodeksiga kiritilmagan desak bo’ladi. Endi bilganmizday har bir qonun bir necha bosqichdan keyin amalga joriy etiladi. Bular, birinchi qonunchilik tashabbusi bilan chiqiladi ya’ni sabablari tushuntiriladi, O’zi bu qonun nima uchun kerak? nega bizda bu norma bo’yicha ehtiyoj sezilyapti? shu kabi savollarga javob beriladi. Ikkinchidan qonun loyihasi keng miqyosda muhokama qilinadi. Bejizga keng miqyosda deb ta’kiblab o’tmadim, chunki so’nggi yillardagi o’zgarishlar va islohotlar tufayli har bir qonun loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilib, jamoatchilik fikri o’rganilyapti. Bu ham islohotlarning bir yutug’idir. Qonun loyihasi o’rganilayotganda xalqaro qonunlarga va milliy qonunchiligimizga mosligi ham o’rganilib chiqib muhokama qilinadi. Uchinchidan esa qonunning qabul qilinishi hisoblanadi. Chunki ba’zi qonunlarda qonunning qabul qilish sanasi va amalga joriy qilinishi yozilib qo’yiladi “2024 1martdan amalga joriy qilinsin” degan ruknga o’xshab, lekin ba’zida esa yozilmaydi. Bunda ham qonunchiligimizda yozib qo’yilgan. Bunga ko’ra, agar qonunda qachondan joriy qilinish muddati keltirilmagan bo’lsa, qonun rasman e’lon qilingandan 10 kun o’tgach qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi. Boyagi o’g’irlik jinoyati 2023 yil boshida sodir etildi, ammo 169-moddaga “d” va “e” kichik bandlar qo’shilishi kerakligi muhokama davrida edi. Endi odil sudlov jinoyatchi muhokama qilinayotgan 169-modda 2-qismining “d” va “e” kichik bandlaridagi jinoyatni sodir etgan bo’lsa ham aynan shu bandlar uchun jazoga torta olmaydi. Chunki Konstitutsiyamizning 30-moddasiga ko’ra hali u rasman e’lon qilinmagan hisoblanadi. O’g’irlik sodir etgan shaxs albatta jazolanadi. Lekin bu jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko’zlamaydi. Balki u axloqan tuzalishi va yangi jinoyatni sodir etishining oldini olish uchun qo’llanilishi kerak. Yoki oldini olish

² O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023

³ O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlashi kerak. Bu prinsip Jinoyat kodeksining 7-moddasida ham keltirib o'tilgan⁴.

Ha, yuqorida keltirilgan hamma misollar odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'zgarishlar qilinayotganini oddiy ko'rinib turgan misolidir. Chunki sud azal-u azaldan ikki tomondan qaysi biri haqligi va to'g'riligi isbotlaydigan yagona hokimiyat hisoblanadi. Shuning uchun sud tizimida ishlaydigan har bir hodim avvalo halol va pok inson bo'lishi kerak. Zero Odil suvlov – Yangi O'zbekiston poydevoridir. Poydevor qancha mustahkam va sifatli xom-ashyodan bunyod qilingan bo'lsa, u bino yillar davomida insoniyatga xizmat qiladi. Demak, Yangi O'zbekiston poydevorini ham adolat, odillik, insoniylik tamoyillariga suyanib bunyod etsak, davlatimiz yildan-yilga rivojlanib, dunyo miqyosida o'z o'rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidan 2020 yil 29 dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

⁴O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023